

BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARIDA MA’NAVIY TARBIYANI SHAKLLANTIRISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH

Tursunov Eldor Elmurodovich

University of Business and Science
pedagogika yo‘nalishi 2-kurs magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ma’naviy tarbiyani shakllantirishda interfaol metodlarning o‘rni va ahamiyati yoritilgan. Interfaol o‘qitish metodlari — bu o‘quvchini dars jarayonining faol ishtirokchisiga aylantirish orqali, ularning mustaqil fikrlash, muloqot qilish, hamkorlikda ishlash kabi ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Maqolada aynan shu metodlar orqali boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ma’naviy tarbiyani shakllantirish usullari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Boshlang‘ich ta’lim ma’naviy tarbiya, interfaol metodlar, axloqiy rivojlanish, o‘quvchi faolligi, tafakkur, ijodkorlik, o‘quv jarayoni.

Аннотация: В данной статье раскрыта роль и значение интерактивных методов в формировании духовного воспитания у учащихся начальных классов. Интерактивные методы обучения превращают ученика в активного участника учебного процесса, способствуя развитию навыков самостоятельного мышления, общения и совместной деятельности. В статье освещены способы формирования духовного воспитания у младших школьников с использованием именно этих методов.

Ключевые слова: начальное образование, духовное воспитание, интерактивные методы, нравственное развитие, активность учащихся, мышление, креативность, учебный процесс

Abstract: This article explores the role and significance of interactive methods in shaping moral education among primary school students. Interactive teaching methods turn the student into an active participant in the learning process, fostering skills such as independent thinking, communication, and collaboration. The article highlights how these methods can be effectively used to develop moral values in young learners.

Keywords: primary education, moral education, interactive methods, ethical development, student engagement, thinking, creativity, learning process

Prezidentimiz Sh.M.Miromonovich ta’kidlaganlaridek: “Ta’lim-tarbiya sohasida zamonaviy va oqilona tizim yaratish, o‘qitish metodlari, ta’lim standartlari, darslik va o‘quv qo‘llanmalarini yangilash zarur”. Bu esa o‘z navbatida o‘quvchilarni ma’naviy tarbiyalash bo‘yicha asosiy yo‘nalishlarni belgilash; – o‘quvchilarda Vatanga sadoqat, mehr-oqibatlilik, mas’uliyatlilik, axloqiy tarbiya kabi muhim fazilatlarni bolalikdan boshlab bosqichma-bosqich shakllantirish; kabi bevosita ijtimoiy kompetensiyalar bilan bog‘liq vazifalarni o‘z

ichiga oladi. Boshlang‘ich ta‘lim bosqichida o‘quvchilarning axloqiy-estetik dunyoqarashini boyitish, milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash, ularda go‘zallikni ko‘ra olish, insoniy munosabatlar hamda madaniyatni tushunish kabi ko‘nikmalarni shakllantirish zarurati ortib bormoqda. Ayni damda o‘quv jarayonida innovatsion pedagogik metodlar – rolli o‘yinlar, axloqiy muammolar yechimi, bahs-munozara va sahnalashtirish kabi usullar orqali o‘quvchilarda ma‘naviy madaniyat elementlarini rivojlantirish imkoniyatlari kengaymoqda. Bu esa o‘z navbatida ta‘lim sifatini oshirish bilan birga, shaxsiy kamolotga xizmat qiladi.

O‘quvchi yoshlarda ma‘naviy-axloqiy munosabatlarini shakllantirishga, ularni darsga nisbatan qiziqishlarini orttirishga, milliy ma‘naviy merosimizga sodiqlik, ajdodlar ruhini hurmat qilishga, mehnatsevarlik, vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga qaratilgan kreativ pedagogik texnologiya metodlaridan keng foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Bunday interfaol metodlarga «Fikriy hujum», «So‘zli tasavvurlar», «6x6x6», «Fikrlarning shiddatli hujumi », «Aqliy hujum», «Rolli o‘yinlar» kabi metodlardan foydalanib o‘quvchilarning ma‘naviy axloqiy sifatlariga ma‘lum jihatdan anchagina hissa qo‘shadi.

«6x6x6» metodi

Ushbu metod yordamida bir vaqtning o‘zida 36 nafar o‘quvchini muayyan faoliyatiga jalb etish orqali ma‘lum topshiriq yoki masalani hal etish, shuningdek, guruhlarning har bir a‘zosi imkoniyatlarini aniqlash, ularning qarashlarini bilib olish mumkin. «6x6x6» metodi asosida tashkil etilayotgan mashg‘ulotda har birida 6 nafardan ishtirokchi bo‘lgan 6ta guruh o‘qituvchi tomonidan o‘rtaga tashlangan muammo (masala)ni muhokama qiladi. Belgilangan vaqt nihoyasiga yetgach o‘qituvchi 6 ta guruhni qayta tuzadi. Qaytadan shakllangan guruhlarning har birida avvalgi 6 ta guruhdan bittadan vakil bo‘ladi. Yangi shakllangan guruh a‘zoari o‘z jamoadoshlariga avvalgi guruhi tomonidan muammo (masala) yechimi sifatida taqdim etilgan xulosani bayon etib beradilar va mazkur yechimlarni birgalikda muhokama qiladilar. «6x6x6» metodining afzallik jihatlari quyidagilardir;

- 1) guruhlarning har bir a‘zosini faol bo‘lishga undaydi;
- 2) ular tomonidan shaxsiy qarashlarning ifoda etilishini ta‘minlaydi;
- 3) guruhning boshqa a‘zolarining fikrlarini tinglay olish ko‘nikmalarini hosil qiladi;
- 4) ilgari surilayotgan bir necha fikrni umumlashtira olish, shuningdek, o‘z fikrni himoya qilishga o‘rgatadi . Eng muhimi mashg‘ulot ishtirokchilarining har bir qisqa vaqt (20) daqiqa mobaynida ham muno‘zara qatnashchisi, ham tinglovchi, ham ma‘ruzachi sifatida faoliyat olib boradi.

So‘zli tasavvurlar metodi

Bu metodda: o‘rganilayotgan masala bilan bog‘liq bo‘lgan eng asosiy so‘zni oling. O‘quvchilardan ular bu so‘zni eshitganlarida xayollariga keladigan boshqa so‘zlarni tez yozishini iltimos qiling. Bu atigi 2-3 daqiqa sarflanadigan juda qisqa mashq. Bironta so‘zni ham yozmaslik mumkinligi yuzasidan izoh bering. Natijada o‘quvchilar dastlabki so‘z bilan tasavvur qiladigan turli so‘zlardan iborat “bir lahzalik surat” hosil bo‘ladi. Mavzu o‘rganib bo‘lingandan so‘ng har bir o‘quvchidan ular ushbu mavzu bo‘yicha nima deb o‘ylashi yoki his qilishini bir so‘z bilan ifodalashni iltimos qiling. Ushbu mavzuga tegishli bo‘lgan so‘zni

misol keltirishni so‘rang. Sinf aylanib, bunday so‘zlarni yig‘ib chiqing. Bir yoki ikki nafar o‘quvchilardan ushbu so‘zlarning ro‘yxatini tuzishni iltimos qiling. Ushbu usul mavzuni o‘rganish jarayonining boshida o‘quvchilar mavzu bo‘yicha nimalarni bilishlarini, hamda bu jarayon oxirida – o‘quvchilar qanday yangiliklarni bilib olganlarini aniqlash maqsadida qo‘llanilishi mumkin.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ma’naviy-madaniyatini shakllantirishda qo‘llaniladigan metodlar — bu faqat darsni tashkil etish vositasi emas, balki bolalarning ichki dunyosiga ta’sir qiluvchi tarbiyaviy mexanizmdir. Dramatizatsiya, rolli o‘yinlar, axloqiy hikoya va muammoli vaziyatlar asosida qurilgan suhbatlar o‘quvchilarda halollik, hurmat, bag‘rikenglik, sabr-toqat kabi fazilatlarni shakllantirishda katta ahamiyatga ega. Shuningdek, interfaol metodlar orqali bolalarning fikrlashi, muomala madaniyati va axloqiy tanlov qilish qobiliyatlari rivojlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrda
“Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chor tadbirlari
to‘g‘risida”gi 1059-sonli qarori

2. M. Zokirova. 4-Sinf tarbiya darslarida ma’naviy-axloqiy madaniyatlilik
kompetensiyasini rivojlantirish usullari. Лучшие интеллектуальные исследование 99
Часть-30_Том-1_Октябрь -2024

3. Sh, R. G. (2021). THE ROLE OF SPIRITUAL AND MORAL EDUCATION IN
THE SPIRITUAL FORMATION OF STUDENTS. Web of Scientist: International
Scientific Research Journal, 2(11), 317-320.

4. Рахмонова, Г. III. (2021, October). РАЗВИТИЕ ДУХОВНОПРАВСТВЕННЫХ
КОМПЕТЕНЦИЙ У СТУДЕНТОВ: DOI: 10.53885/edinres. 2021.30. 30.038 Рахмонова
ГШ, научный исследователь кафедры «Дошкольное образование» БГУ, Асадова
Вазира, одарённый студент факультета Дошкольного образования БГУ. In Научно-
практическая конференция (pp. 96- 97).

5. Рахмонова Г. ТАЛАБАЛАРДА МАЪНАВИЙ-АХЛОҚИЙ
КОМПЕТЕНЦИЯЛАРНИ РИВОЖЛАНТИРИШ //Материали конференцій МЦНД. –
2021.

6. Shavkatovna R. G. Methods of formation of spiritual and moral competencies in the
education of future teachers //ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL
27.MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL. – 2021. – T. 11. – №. 2. – С. 976-
980.